

## PSIXOLOGIYADA SHAXS ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA STEREOTIPLARI SHAKLLANISHI BO'YICHA PSIXOLOGIK TAHLILLAR

Norbekova Barno

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Yoshlar rsixologiyasi kafedrasini mudiri, (PhD)

*Annotatsiya: Maqolada psixologiyada shaxs etnopsixologik xususiyatlari va stereotiplari shakllanishining emosional va etik baholashning mavjudligi, stereotiplarning namoyon bo'lishi bo'yicha olimlarning fikrlari rsixologik tahlillar asosida mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar; etnorsixologiya, oila, rsixologiya, yoshlar, tarbiya

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК И СТЕРЕОТИПОВ В ПСИХОЛОГИИ

Норбекова Барно

заведующая кафедрой психологии молодежи Джизакского филиала Национального университета Узбекистана, кандидат психологических наук (PhD)

*Аннотация: В статье рассматривается существование эмоционально-этической оценки личностного этнопсихологического поведения и формирование стереотипов в психологии, мнения ученых о проявлении стереотипа на основе психологического анализа.*

*Ключевые слова; этнопсихология, семья, психология, молодежь, образование*

## PSYCHOLOGICAL ANALYZES ON THE FORMATION OF PERSONAL ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS AND STEREOTYPES IN PSYCHOLOGY

Norbekova Barno

Head of the Department of Youth Psychology of the Jizzakh branch of Uzbekistan national university, Ph.D.

*Annotation: The article examines the existence of an emotional and ethical assessment of personal ethnopsychological behavior and the formation of stereotypes in psychology, the opinions of scientists about the manifestation of a stereotype based on psychological analysis.*

*Keywords; ethnopsychology, family, psychology, youth, education.*

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, har bir xalqning xalq og'zaki ijodi, ertak va maqollari, folklori shaxsda etnopsixologik xislatlar shakllanishida muhim hisoblanadi. Xususan, ertaklardagi vektor stereotip, avvalo yetarlicha murakkab bo'lgan alohida maqsadning mavjudligi bilan ob'ektivlashtiriladi. Maqsadga erishish uchun bir qator turli xarakterdagi sinovlardan o'tish, turlicha usullarni qo'llab ko'rish zarur bo'ladi. Maqsadlarning qo'yilishi shaxsdagi ma'naviy, intellektual va boshqa tomonlarning rivojlanishi uning ijtimoiy funksiyalarni bajarishidan ham muhimrok ekanligi haqida xulosa qilish imkonini beradi.

Ertaklarda emosional va etik baholashning mavjudligi etnopsixologik stereotiplarning namoyon bo'lishidan darak beradi. Masalan, sabr-toqtatlilik, og'ir mehnatga xotirjamlik bilan munosabatda bo'lish, halol mehnat va xatti-harakat bilan munosib mukofotga erishish pozitiv baholashni yuzaga keltiradi hamda munosabat modellarida oldingi qatorga o'tkaziladi.

Ertaklar vositasida etnopsixologik stereotiplar shakllanadi va bolalardagi milliy shakllanish jarayoniga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Masalan, «Zumrad va Qimmat» ertagida qizlar tarbiyasi, «Yoriltosh» ertagida opa-singillarning ahilligi, «Uch og'ayni botirlar»da tasvirlangan yigitlarga xos mardlik, jasurlik gender etnopsixologik xususiyatlar shakllanishiga olib keladi.

O'zbek xalq maqollari ham etnosning etnopsixologik stereotiplarini to'la ochib beradi. Maqollardagi optimizm, baxtning moddiy narsalar bilan o'lchanmasligi, kelajakning noma'lumligi va fatalizm, milliy va diniy bag'rikenglik, yaxshilik va yomonlikning sub'ektivligi bolalarda milliy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, prozaik janrlar stereotiplar tizimini to'laqonli aks ettiradi va bolani jamoanining bir bo'lagiga aylanishi tabiiy yo'l bilan mavjud bo'lgan dunyoqarash va dunyodagi tartiblarni o'zlashtirishiga zamin yaratadi. Shuningdek, folklor psixologik stereotiplarning shakllanishida muhim hisoblanadi.

Masalan, alohida bilimlarga ega bo‘lishning muhimligi, baxtning moddiy narsalar bilan o‘lchanmasligi, etnik identiklik, tolerantlik va h.k.

Ma’lumki, an’anaviy tarzda inson psixikasida uchta daraja ajratiladi: ong, ongosti, ongsizlik. Ong keng ko‘lamli va murakkab bo‘lib, unda dunyoni sezish ko‘rinishiga ko‘ra, ahamiyatli farqlanuvchi elementlar ajratiladi. Shu bilan bog‘liq tarzda ongda ikki daraja ostiga ajratiladi: quyi va yuqori. Ong osti bilan chegaradosh quyi daraja kundalik ongning obrazlari va xayollarini o‘zida namoyon etadi. Yuqori daraja esa madaniy tajribani reaksiya bildirishning siqiq ko‘rinishida saqlaydi. Ong osti nogenetik (shaxsiy tajriba orqali qo‘lga kiritiluvchi psixik tuzilmalar) kodlar vositasida genetik kodlar ob’ektivligiga javob beradi [1].

Psixikaning bunday ko‘rinishi bilan aloqador tarzda, etnomadaniy stereotiplar ierarxiyasini quyidagi ko‘rinishda ko‘rish mumkin: etnopsixologik (yuqori daraja) va etnoxulqiy (quyi). Nogenetik (hayot davomida o‘zlashtirilgan) irlsiy bo‘lib turib, ular genetik asos (tug‘ma) - arxetiplarga tayanadi.

Inson psixikasining eng chuqur darajasi arxetiplar harakat qiluvchi ongsizlik hisoblanadi. Arxetip - barcha insonlar uchun umumiy bo‘lgan genetik shakllangan obrazdir.

Etnopsixologik stereotiplar - insonning voqeliklar va predmetlarga (emosional - baholash komponenti) bo‘lgan munosabatiga ya’ni, u madaniyatning konkret elementlarini qanday tushuntirishiga javob beruvchi madaniy spetsefika bilan shartlangan reaksiya bildirish modellaridir [2].

Xulqiy stereotiplar – bu, to‘liq avtomatizm bilan xarakterlanuvchi xulq-atvorning barqaror sxemalashtirilgan dasturi (modeli), madaniyat vakilini konkret vaziyatlarda qo‘llovchi xarakterli strategiya [3]. Bu ikki tuzilma ong darajalari bilan to‘liq muvofiq kelib quyi darajada u yoki bu harakat amalga oshirilsa, yuqori darajada bu harakatni asoslash va unga nisbatan qo‘zg‘alish yuzaga keladi.

Xulq-atvor dasturlarining xilma-xilligi insonning konkret vaziyatlarga reaksiysi tezligini yo‘qotmaydi, bu esa, qat‘iy tuzilmadan dalolat berib, nisbatan abstrakt tartibga ega bo‘lgan kategoriylar barcha ko‘plikni tizimlashtiradi. Shu bilan bog‘liq tarzda muallifning fikricha, bu kategoriylar darajasini belgilash uchun sezgi a’zolari orqali qabul qilinuvchi madaniyatdan tashqari (tabiiy) voqeliklar va ma’lumotlarni madaniyat bilan shartlangan tarzda idrok etish, dunyoni his etish obrazlarining barqaror konseptual sxemasi ostida tushuniluvchi, stvolli stereotiplar deb ataluvchi aniqlashtiruvchi terminini kiritish mumkin. Stvolli stereotiplarning majmui kirib kelayotgan ma’lumotni tartiblashga imkon beruvchi shakllanayotgan dunyo tasvirining asosi sifatida namoyon bo‘ladi va yangi bilimlar yig‘iluvchi asosga aylanadi. Arxetipdan farqli ravishda, stvolli stereotip genetik (tug‘ma) kelib chiqishga ega emas, u etnik shakllanish yo‘li orqali hayotda shakllanadi, shuning uchun ham har bir etnik guruh maxsus stvolli stereotiplarga ega bo‘ladi.

Psixologik nuqtai – nazardan stereotiplashish qandaydir ijtimoiy guruh yoki etnik birlikning barcha a’zolariga moslashuvi jarayonidir. Demak, etnik stereotiplari yuksak hissiyoti va barqarorligi bilan farqlanadigan turli etnik guruhlarning vakillari to‘g‘risidagi umumiyl xulosalardir. Stereotiplar tarkib topishining sababi, guruhnинг qadriyatlarini himoya qilishga intilish bilan birga juda ko‘p axborotlarni «o‘zlashtirish» uchun kundalik fikrlashda «kuchlarini tejash» prinsipidan foydalanish zarurligidir. Milliy psixologiya-elementi bo‘lmish, etnik stereotiplar kundalik hamda nazariy ong darajasida shakllanadi va emosional, rasional, irodaviy elementlar majmuidan iborat bo‘ladi. Etnik stereotiplarni psixologik tahlil qilish uchun ularning ichki tuzilmalarini bilish muhim ahamiyatga molikdir.

Stereotipni 4 ta xususiyati (L.Edvars) bo‘yicha o‘lhash mumkin.

1. Stereotipning mazmuni, ya’ni qandaydir etnik guruhga mansub xususiyatlar to‘plami.
2. Bir xillik u yoki bu xususiyatlarni etnik guruhga mansublashtirishdagi tekshiruvchilarining moslik darajasi.

3. Yo‘nalish stereotiplashish ob’ektini umumiy, ijobiy yoki salbiy idrok etish.

4. Intensivlik - stereotiplashadigan guruhga nisbatan xato tushunchaning stereotipida ko‘ringan darajasi [4].

Xulqning stereotiplashgan shakllari anchadan beri turli xil fan namoyondalarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Chet el psixologi E. Fromm, jamiyat ichidagi birliklar va sinflar o‘zining alohida ijtimoiy xarakterga ega ekanligini va shu asosda rivojlanishini hamda muayyan g‘oyaviy kuchga ega bo‘lishini quyidagicha ta’kidlaydi. Agar ijtimoiy xarakterga uning ijtimoiy jarayondagi vazifalari nuqtai-nazaridan qaralsa, biz avvalo inson ijtimoiy sharoitlarga moslashib, o‘zidagi shakllanishi shart bo‘lgan xarakterlarni bir yo‘sinda harakat qilishiga majbur etadigan xislatlarni rivojlantirishini tasdiqlashimiz lozim [5].

A.K.Bayburin - ijtimoiy va etnik stereotiplarni ikki qiyofali odamga taqqoslab, shunday deb yozadi:

a) ular mazkur ijtimoiy birlikning individualligini boshqa ijtimoiy makondan, boshqa madaniyatdan izlashsa, uning aks ettiradigani mazkur sosisum, (birlik) mazkur ijtimoiy guruh muammosini hal qilishning individual reflekslanmaydigan (ikki ijtimoiy guruh uchun boshqa–boshqa) usullari bo‘lishi mumkin;

b) ana shu stereotiplar mazkur guruhdagi shaxs, uning etnik o‘ziga xos xislatlari sifatida boshqa madaniyatiga duch kelganda uni biladigan shaxsning ijtimoiy, tipik xarakteristikasi sifatida ham namoyon bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi [6].

A.G.Asmolov o‘z ta’rifida, - «U.Lipmanning fikriga qo‘shilib, A.P.Trusov va A.S.Filippov etnik stereotiplarni ikki jihatdan, ya’ni gnoseologik (ularning bilish jarayonidagi roli) va sosiologik (ularning ijtimoiy vazifalari) jihatlardan turib tadqiq qilishni tavsiya etadi. Ana shu fikr bizni bundan keyin ushbu bo‘lim materiallarini bayon qilishda ham to‘la qanoatlantiradi va biz ham ana shu yo‘ldan boramiz», - deb ta’kidlaydi [7].

U.Lipman o‘z tadqiqotlaridan birida stereotiplashish zarurligining ikkita eng muhim sababini ko‘rsatadi .

Birinchisi - stereotiplashish tufayli kishilarning kuch sarflashi tejaladi, ular yangi faktlar va hodisalar to‘g‘risida qaytadan o‘ylab, fikrlab o‘tirmaydilar; shunday faktlar va hodisalarni to‘g‘ridan–to‘g‘ri mavjud kategoriyalarga kiritadilar. «Agar atrofdagi olamda bir xillik bo‘lmasa, yoki kuchlarni tejashning hech qanday yo‘li bo‘lmasa, faqat xatolar mavjud bular edi, lekin ana shunday bir xillik mavjud bo‘lgani uchun diqqat–e’tiborni tejash shunchalar zarurki, agar sof tajriba asosida fikr yuritish uchun barcha stereotiplardan voz kechilsa, insoniyatning tirikchiligiga muqarrar ravishda zarar yetar edi» [8].

Ikkinci - sabab guruhiy boyliklarni (milliy madaniy boyliklar va shaxsning ma’naviy boyligi) muhofaza qilish, ya’ni sof ijtimoiy vazifadir. «Stereotiplar» an’analarmizni qo‘riqlaydi, ular qancha ko‘p bo‘lsa, biz unda o‘zimiz egallagan mavqening xavfsizligini shunchalik ko‘pligini xis etishimiz mumkin, deb ta’riflaydi.

Ma’lumki, «stereotip» iborasining ilmiy muomalaga 1922 yilda U.Lipman kiritgan. Ammo stereotiplar tadqiqot ob’ekti bo‘lgunicha oradan ma’lum vaqtlar o‘tgan. Dastlabki, inson qiyofasi muammosini empirik tadqiq qilishga ko‘p e’tibor berildi. Shundan keyingina etnik stereotiplarni keng miqyosda tadqiq etish bosqichi boshlandi. Hamma kishilar u yoki bu darajada ijtimoiy va etnik stereotiplarning ifodalovchisidir. Bizning boshqa xalqlar to‘g‘risidagi bilim va tasavvurlarimizning bir qismi ana shu stereotiplar yordamida shakllangan [8].

M.Mukanovning yozishicha, etnosning o‘ziga xosligi shundan iboratki, uning vakillari mazkur etnosiga xos assosiativ aloqada bo‘ladilar. Etnos tomonidan qabul qilingan me’yorlar konvensionlardir (to‘la tan olingandir) [9]. Etnosdagi me’yoriy jarayonlar konvensiyalar (kelishuviga rioya qilish) va uning mavjudligi sababli barqaror tus oлган (stereotiplashgan) jarayonlardir.

Mazkur fikrlar ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Tadqiqotchi A.M.Jabbarov ta’kidlaganidek:

1) ijtimoiy-madaniy muhit vujudga kelishining manbalari etnosning birligi, tili, zamon va makonda tashkil topishi, xalqning turmush tarzi, boyliklari, qadriyatları, ijtimoiy hamda madaniy mavjudligi va hokazolardan iboratdir;

2) xalqning o‘ziga xos fe’l–atvori va psixologiyasining etnik stereotiplarini tadqiq qilish, ularni vujudga keltirgan ijtimoiy–madaniy tizimni o‘rganish asnosida amalga oshirilishi kerak. Bunda xalqning o‘ziga xosligini tiklash avloddan–avlodga o‘tib kelayotgan stereotiplarning noaniq nusxasi ekanini hisobga olish kerak [10].

O‘zbek xalqining etnik stereotiplari, o‘ziga xosligi, uning an’analari, marosimlari, urf-odatlari va didi, matallarda va hikmatli so‘zlarida chuqr o‘rin oлган. Xalqning avaylab saqlashi va ardoqlashi sababli, ular hozirgacha o‘zining dastlabki ma’nosini yo‘qotmagan va millatimiz vakilining kundalik hayotidagi eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

M.M.Qoplonovaning yozishicha, - o‘zbek xalqining qiyofasi xo‘jalik faoliyati va turmush tarzi xususiyatlari dastavval mahalliy, tabiiy–geografik va xo‘jalik madaniy tiplarini yaratgan mintaqasi hisoblanadi. Unda yashovchi xalqlarning kelib chiqishi va tarixiy taqdiri ham umumiylar xarakterga ega. Milliy ruhiyat, ijtimoiy ong, oilaviy va ma’naviy hayotning hozirgi davr talabiga javob bera oladigan darajada rivojlanishi, shubhasiz xalqning erkinligi, uning davlat tuzilishi bilan bevosita bog‘liq.

Tadqiqotchi, o‘zbeklarning milliy xarakter xususiyatlariiga quyidagilarni misol qilib keltirgan:

\*yo‘nalganlik xususiyatlari: ehtiyojlari, ideallari, ustakovkalari, qiziqishlari, maqsadlari;

\*aqliy xususiyatlari: ma’rifatparvarlik, uquvlilik, fahmlilik, farosatlilik, mug‘ombirlik, e’tiborlilik,

ziyraklik, mohirlik, xushyorlik;

\*irodaviy xususiyatlar: axloqiylik, odoblilik, botirlilik, mag'rurlik, sabr-toqatlilik, qat'iylik, tobelik;

\* emosional xususiyatlari: bosiqlik, mulohazalilik, ehtiroslilik, mehribonlik, ishonuvchanlik, qiziqqonlik, tezobililik, zavqlilik, nafosatlilik va yumshoq fe'lliliklar kiradi - deb hisoblaydi [11].

M.Mamatovning ta'kidlashicha, milliy psixologik qiyofaning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga, ya'ni, urug', qabila va elatlarga ham xosdir. Ma'lumki, bola o'ziga Vatanni yoki ota-onani tanlab tug'ilmaydi. Shunday ekan, u o'z millatiga mansub bo'lgan tayyor xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola o'z ota-onasidan va avlod-ajdodlaridan biologik yo'li bilan irqiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy temperament xususiyatlarinigina meros qilib oladi, xolos. Bola milliy muhitda yashab turgandagina, shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni egallab, ayni millat vakili bo'la oladi [12].

O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyati: ko'p avlodlilik, ko'p farzandlilik kabilalar bunday oilalar a'zolari o'rtasida o'zaro muloqotni to'laroq amalga oshirishga asos bo'ladi, ularning o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq so'nggi yillarda ba'zi oilalarda ota-onalar va bolalar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborining pasayishi, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinligining cheklanganligi (ayniqsa, qishloq oilalarida) holatlari ham mavjud.

Bir narsani tan olish kerakki, o'zbek milliy tarbiyasi doirasida tortinchoqlilik fazilat sifatida baholanadi. Buni chet elliklar esa ruhiy kasalikka chalinish deb hisoblaydilar.

Milliy muhitda qo'ni-qo'shnilar va ayniqsa qarindosh-urug'lar o'rtasidagi o'zaro hurmat hamda o'zaro yordam qadimiy an'analarning biridir. Qator ishlarda o'zbeklar milliy psixologiyasining tarkibiy xususiyatlari ifodalangan.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6 т. -М., 1983. –Т-2. / Проблемы общей психологии. / Под ред. В.В.Давыдова. - М.: Педагогика, 1982.-504 с.

Бернштейн Н.А. Большой толковый психологический словарь. - С.297.

Байбурина А.К. Этнические стереотипы поведения. - Л.: Наука, 2005. -Б.11.

Степаненко Т. Г. Индивидуальные стратегии конструирования этнической идентичности // Идентичность и толерантность / под ред. П. М. Лебедевой. М. : Изд-во ИЭА РАН,2002. С. 41.

Фромм Э.М. Характер и социальный прогресс // Психология личности.-М., 1982. -С. 49-51.

Байбурина А.К. Этнические стереотипы поведения. - Л.: Наука, 2005. -Б.11.

Асмолов А.Г. Психология личности. Культурно-историческое понимание развития человека. 3-е изд., испр. и доп. М., 2007. - 526 с.

Липман У. Этнические стереотипы поведения. – М.: Просвещение, 1978.

Муканов М.М. Образ жизни и этнопсихология интеллектуальной деятельности // Психология личности и образ жизни. –М., 1987.- С.100-102.

Бекмуродов М. Ўзбек менталитети хусусиятлари //Ижтимоий фикр 1998 № 1. 49-бет.

Коплонова М.М. Ўзбекларнинг психологик қиёфаси ва миллий характери //Хозирги замонда этнопсихологиянинг муаммолари: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. -Т., 1990. - Б. 10-11.

Маматов М. Тошимова Р. Катта патриархал оиласардаги муносабатларнинг социал-психологик асослари //Ўзбек оиласининг этнопсихологик муаммолари: Республика илмий-амалий анжуман материаллари.-Т., 1993. -Б. 51-52.